REVMATOID ARTRITDA XALQ TABOBATI USULLARINING SAMARADORLIGI: ADABIYOTLAR SHARHI

Arslonova N.A.[1], Qayumov X.N.[2] Buxoro davlat tibbiyot instituti, Buxoro, O'zbekiston

Dolzarbligi. Revmatoid artrit (RA) — periferik bo'g'imlarning simmetrik zararlanishi, sinovial membranada destruktiv jarayonlar va ekstraartikulyar ko'rinishlar bilan tavsiflanadigan surunkali, tizimli, autoimmun yallig'lanish kasalligi bo'lib, dunyo bo'ylab kattalar aholisining 0,5–1,0% ini qamrab oladi (WHO, 2022). Global kasallik yuki tadqiqoti (GBD, 2019) ma'lumotlariga ko'ra, 18 milliondan ortiq inson RA bilan yashaydi. Kasallik ayollarda erkaklarga nisbatan 2–3 barobar ko'p uchraydi, yosh o'tgan sari tarqalish ortadi va ijtimoiy-iqtisodiy yuk sezilarli darajada og'ir. O'zbekistonda ham muskul-skelet tizimi kasalliklari muhim tibbiy-ijtimoiy muammo sifatida e'tirof etiladi, Orolbo'yi mintaqasidagi ekologik inqiroz esa aholining immun tizimiga salbiy ta'sir ko'rsatib, autoimmun kasalliklar tarqalishiga zamin yaratishi mumkin.

Maqsad. Adabiyotlar sharhi asosida RA patogenezi, zamonaviy standart farmakoterapiyasining cheklovlari va fitoterapiya vositalarining ilmiy asoslangan samaradorligi to'g'risidagi mavjud dalillarni tahlil qilish hamda mavzuning dolzarbligini asoslash.

Patogenez va zamonaviy davolashning cheklovlari. RA patogenezi tug'ma va orttirilgan immunitetning murakkab o'zaro ta'siriga asoslanadi: sitokinlar tarmog'i (TNF-α, IL-1β, IL-6, IL-17), T- va B-limfotsitlar, makrofaglar, fibroblastsimon sinoviotsitlar va osteoklastlar kasallikning asosiy patogenetik bo'g'inlarini tashkil etadi. Standart farmakoterapiya — DMARDs (metotreksat, sulfasalazin, leflunomid), biologik preparatlar (infliksimab, adalimumab, totsilizumab, rituksimab) va JAK-ingibitorlari — davolashning asosini tashkil etsa-da, bir qator muhim cheklovlar mavjud: metotreksatning gepatotoksikligi NSAIDlarning gastrointestinal va kardiovaskulyar nojo'ya ta'sirlari, glyukokortikoidlarning osteoporoz va metabolik

buzilishlarga olib kelishi, biologik preparatlarning yuqori narxi va infektsion asoratlar xavfi. Bu muammolar RA davolashda integrativ va komplementar yondashuvlarni izlashni zarur qilmoqda.

Purinergik signalizatsiya tizimining roli. So'nggi yillarda purinergik signalizatsiya tizimining, xususan P_2X_7 retseptori va adenozin retseptorlarining immunitet javobi boshqarishidagi roli alohida e'tiborni tortmoqda (Burnstock G., Boeynaems J.M., 2014). P2X7 retseptorining ortiqcha faolligi NLRP3 inflammasoma orqali IL-1β sekretsiyasini va autoimmun yallig'lanishni kuchaytirishi aniqlangan. Adenozin A_2A va A_3 retseptorlari agonistlari esa yallig'lanishni bosishi ilmiy jihatdan tasdiqlangan. Aynan ushbu mexanizmlar fitoterapiya vositalarining potentsial ta'sir nuqtasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Fitoterapiya vositalarining ilmiy asosi. Adabiyotlar tahlili bir qator o'simlik komponentlarining RA patogeneziga maqsadli ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Kurkuminning NF-κB signal yo'lini ingibирlash va sinovial fibroblastlarda yallig'lanish sitokinlari ishlab chiqarilishini kamaytirish xususiyati eksperimental va klinik tadqiqotlarda isbotlangan. *Nigella sativa* tarkibidagi timokinon moddasi immunomodulyator faolligi bilan ajralib turadi; platsebo-nazorat ostidagi klinik tadqiqotda RA bemorlarida uning klinik samaradorligi. Zanjabil ekstrakti yallig'lanish sitokinlarini kamaytirishga ta'sir etadi, *boswellia* kislotalarining 5-lipoksigenazani ingibirlash xususiyati esa surunkali yallig'lanish kasalliklarida keng o'rganilgan.

O'zbekiston kontekstida mavzuning o'rganilmagan jihatlari. Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston populyatsiyasida mahalliy dorivor o'simliklar (kurkuma, zanjabil, qora zira) asosidagi fitoterapiyaning standart bazis terapiya bilan kombinatsiyada kompleks klinik samaradorligi tizimli ravishda baholanmagan. Fitoterapiya vositalarining kasallik faolligiga ta'siri DAS28 indeksi, yallig'lanish markerlari (EChT, SRO) va sitokinlar profili (IL-1β, IL-6, TNF-α) dinamikasi asosida mintaqaviy klinik tadqiqot doirasida o'rganilmagan. Bundan tashqari, bioaktiv

moddalarning (kurkumin, timokinon, gingerol) purinergik retseptorlar (P2X7, adenozin A2A) orqali immunomodulyator ta'sir mexanizmlari mintaqaviy sharoitlarda tekshirilmagan.

Xulosa. Adabiyotlar sharhi RA davolashda standart farmakoterapiyaning mavjud cheklovlari va fitoterapiya vositalarining — kurkumin, timokinon (*Nigella sativa*), gingerollarning — NF-κB signal yo'li, proinflammatuar sitokinlar tarmog'i va purinergik signalizatsiya tizimi orqali ilmiy jihatdan asoslangan ta'sir mexanizmlariga ega ekanligini tasdiqlaydi. JSST an'anaviy tibbiyot strategiyasi (2025–2034) doirasida mahalliy o'simlik xomashyosi asosidagi fitoterapiya usullarini zamonaviy klinik va laborator mezonlar asosida o'rganish hamda integrativ davolash protokollarini ishlab chiqish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi.